

**MAVZU: TA'LIM TIZIMIDA INTERNET VA BOSHQA
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Sultanova Sadoqat Botir qizi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

*Kasbiy ta'lim fakulteti, Kutubxona-axborot faoliyati (tarmoq turlari bo'yicha)
yo'nalishi 3-kurs talabasi.*

Hozirda ilmiytexnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash muhimdir. Zamonaviy axborot jamiyatida media axborot tushunchasi tahlili va o'zgaruvchan media muhitida yosh avlodning media madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mediasavodxonlik sohasida o'zgaruvchan yangiliklar va rivojlanayotgan texnologiyalar bilan birgalikda bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar va amaliy mashg'ulotlar, media savodxonligi darajasini oshirib, axborot jamiyatida media resurslardan foydalangan holda ko'nikmaga ega bo'lish zarur.

Kalit so'zlar. Ta'lim tizimi, texnologiyalar, media, media ta'lim, axborot, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, media strategiyasi.

Kirish bo'limi. Bugungi kunda media, mediakompetentlik, mediasavodxonlik kabi atamalar barcha sohalarni qamrab olmoqda, shu jumladan ta'lim sohasini ham. Shunday ekan ta'lim sohasida maktab faoliyati uchun multimediya yordamini yaratishni qayerdan boshlash kerak? O'quvchilarga medialardan foydalanish va axborotlarni to'g'ri tahlil qilishni qanday o'rgatishimiz mumkin? degan savollarga javob topish dolzarb masalalardan xisoblanadi. Birinchi navbatda multimedia atamasiga to'xtalib o'tsak.

Multimedia bu elektron muhit, ya'ni audio, video, elektron resurs, visual tasvirlar, veb-saytlar, reklamalar ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan axborotlarning barchasi multimedia hisoblanadi.

Media savodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi.

Media ta'lim esa ta'lim va muloqotda tanqidiy yondashuvlar, axborotlarni to'g'ri tahlil qilish nuqtasidir. U tanqidiy fikrlash tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Media va axborot savodxonligi — inson zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini qabul qilish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim va ko'nikma majmui hisoblanadi.

Tadqiqotchilar AQShning 19 ta shtati va Kanadaning bir provinsiyasida o'tkazilgan 60 dan ortiq tadqiqotlar orqali maktab kutubxonalari o'quvchilarning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy maqsadi shundan iborat ediki, maktab kutubxonasi media-mutaxassislari bilan yaxshi qo'llab-quvvatlanadigan maktab kutubxonasi media dasturidan foydalanish imkoniga ega bo'lgan talablar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, o'qishni baholashda yuqori ball olishlaridir. Bundan tashqari, Ogayo shtatida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, so'rovda qatnashgan o'quvchilarning 99,4% maktab kutubxonachilari va maktab kutubxonasidagi media dasturlari ularga maktabda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam berganiga ishonishgan.

Media va axborot savodxonligi YUNESKO tomonidan 2007-yilda taklif qilingan keng qamrovli tushunchadir. Xususan, 2011-yildan boshlab IFLA davlat va tashkilotlarga quyidagilarni tavsiya qiladi:

- Media va axborot savodxonligi darajasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va media va axborot savodxonligi ko'rsatkichlariga asoslangan hisobotlarni chiqarish, mutaxassislar, o'qituvchilar va amaliyotchilar samarali dasturlarni amalga oshirishlari uchun tashabbuslar;
 - Ta'lim xodimlarining kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, kutubxona, axborot, arxiv, tibbiyot sohalari va ijtimoiy xizmatlar media va axborot tamoyillari va amaliyotiga muvofiq yordam berish;
 - "Media va axborot savodxonligi " fanini o'quv dasturlariga kiritish;
 - Media va axborot savodxonligini dasturlarga kiritish axborot mutaxassislarining asosiy va qo'shimcha ta'limi, pedagoglar, iqtisodiy va siyosiy direktiv organlar xodimlari va ma'murlar, shuningdek mutaxassislar faoliyatiga ta'sir qilish;
- ✓ media va axborot savodxonligi strategiyalari, shuningdek aholiga ushbu dastur tushunchalarini yetkazish, o'qitish alohida mintaqalar, sektorlar va guruh vakillariga bo'linib (IFLA 2011)

Xususan O'zbekistonda ham O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" gigi №541-son Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi №476-son Qonuni² va bir qancha me'yoriy xujjatlar doirasida media va axborotdan foydalanish borasida bir qancha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari

¹ O'zbekistonda ham O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" gigi №541-son Qonuni

² O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi №476-son Qonuni

Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ommaviy axborot vositalarining erkinligi;
- ommaviy axborotlar vositalari faoliyati sub'ektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda xavfsizligini himoya qilish ustuvorligi;
- ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- ommaviy axborotlar vositalari faoliyati sohasida so'z erkinligi, oshkoralik va ochiqlik;
- ommaviy axborot vositalari erkinligini suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi.

Metodlar bo'limi. Amerikalik olim P. Ofderheyd "Media savodxonlik insonda ommaviy axborot vositalariga nisbatan tanqidiy avtonomiyani rivojlantiradi. Media savodxonlikida asosiy narsa fuqarolik, ijtimoiy, iste'molchi sohalarida, estetik idrok va ijodkorlik bilan bog'liq keng qamrovli ma'lumotdir" deb aytgan. Media savodxonligi muammolari bugungi kunda maktablardagi dolzarb muammo bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari o'sib kelayotgan o'quvchi yoshlarni o'z ta'siri nazorati ostiga olmoqda. Shunday ekan ta'lim tizimida media targ'ibotni biz maktab sharoitidan boshlashimiz kerak. Chunki bugungi kundagi zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar uchun media ta'limning o'rni katta, yani mediasavodxonlik o'quvchilarda nafaqat tanqidiy fikrlash balki, muloqot jarayonida ham, ta'limda ham kognitiv, texnik, axloqiy va xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra Respublikamizda umumta'lim muassasalari soni 10 522 tani tashkil etdi va ushbu umumta'lim markazlarida jami 6,3 million nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Shu ko'rsatkichlarga asoslangan holda biz maktablarda o'quvchi yoshlarga mediasavodxonlikni o'rgatish bo'yicha milliy darajadagi loyiha joriy etib, birinchi navbatda boshlang'ich sinflar uchun yani 1-4 sinflar kesimida mediasavodxonlikni darslik sifatida kiritishimiz kerak. O'quvchilarga media savodxonlik darslarini amaliy ko'nikmalar, savol javob va viktorinalar asosida olib borish va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning nafaqat zararli tomonlari, balki foydali tomonlarini ham o'rgatib borsak mubolag'a bo'lmaydi. Maktablarda maktab radio studiyasi, maktab televideniesi, mediasavodxonlik to'garaklari, media ta'lim tanlovlarini tashkil etish ushbu loyihani rivojlanishida qulay vosita hisoblanadi. Chunki o'quvchi yoshlarning atigi 14 foizi internetdan olayotgan axborotlarini tekshirib, ijobiy va salbiy ma'lumotlarga ajrata olishi mumkin xolos.

Bundan tashqari bugungi kundagi eng dolzarb masala ijtimoiy tarmoqdagi saytlardan foydalanishdir. Ijtimoiy tarmoqlardan axborot olishda o'quvchi yoshlar bir qancha muammolarga duch kelmoqdalar. Jumladan har xil turdagi saytlarga kirib keraksiz havolalar orqali o'zi bilmagan holatda noto'g'ri oqimlarga kirib qolmoqdalar. Bularning barchasi media va axborot olish ko'nikmalari shakllanmaganligidandir. Bu ko'nikmalar maktab yoshidagi o'quvchilarda to'g'ri shakllanishi uchun biz yuqoridagi loyihani maqsadli deb hisoblaymiz.

Natijalar bo'limi. O'zbekiston ta'lim sohasining asosiy bo'g'ini xalq ta'limi tizimi xisoblanib, maktablarda o'quvchi-yoshlarni media savodxonligini shakllantirish va oshirish maqsadida media savodxonlik darslarini kiritish zamon talabi xisoblanadi. Mediata'lim, mediasavodxonlik yoki mediamadaniyat fanlari maktab ta'limiga kiritilsa o'quvchi-yoshlarda quyidagi mediakompitentlik xosil bo'ladi:

- ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan voqea va hodisalarning talqinidan tanqidiy foydalanish;
- virtual muhitga kirish;
- axborotlarni to'g'ri talqin qilish va tarqatish;
- aloqa vositalaridan xavfsiz foydalanish va dunyo qarashini shakllantirish;
- axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllanib boradi.

Albatta o'quvchilarga media savodxonlikni va axborotlarni to'g'ri tahlil qilishni o'rgatishda o'qituvchilarning ham ushbu ko'nikmaga ega bo'lishlari muhim hisoblanadi. Bu o'qituvchidan bilim va ko'nikmalarni, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi vakolatlarni talab qiladi. Chunki o'quvchilarning ko'p vaqti maktabda o'tadi. O'qituvchi axborot texnologiyalari va multimedia resurslari orqali axborot olish ko'nikmalarini o'rgatishda asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi. O'qituvchilar o'z kasbiy malakasini oshirish jarayonida ommaviy axborot vositalaridan mohirona foydalanishlari mumkin.

Bizning fikrimizcha o'quvchi yoshlarga mediasavodxonlik tushuncha va ko'nikmalarini o'rgatishni bosqichma bosqich amalga oshirsak maqsadimizga oson va tez erishishimiz mumkin:

birinchidan o'qituvchilarning axborot va multimedia resurslaridan foydalanish malakasini muntazam oshirib borish;

ikkinchidan maktablarni zamonaviy axborot va media resurslar bilan boyitib borish, yani kompyuterlar, raqamli kamera, raqamli videokamera, interfaol doska, multimedia proektorlari, skanerlar, 3G- modemlar, mikrofonlar, web- kameralar, mini laboratoriya, grafik planshetlar va hakoza.

Munozara bo'limi. Yuqoridagi texnologiyalar bilan Respublikamiz maktablarining hozircha 40%i ta'minlangan. Albatta bular moddiy ta'minotni talab qiladi, lekin davlatimiz o'quvchi yoshlarimiz kelajagi uchun befarq emas. Quyida bunga misol tariqasida Prezidentimizning yoshlarga qarata aytilgan so'zlarini keltirmoqchimiz: "Hech qachon unutmang, sizlar inson har tomonlama erkin, ozod va farovon yashaydigan Yangi O'zbekiston hamda Uchinchi Renessans bunyodkorlarisiz. Ana shunday sharafiga munosib bo'lish yo'lidagi intilishlaringiz va hayotda o'zingizning munosib o'ringizni topishingiz uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to'liq safarbar etamiz.

Sizlar zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashingiz uchun barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solayapmiz. Men Prezident sifatida sizlar o'z oldingizga qo'ygan reja va marralarga erishishingiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga tayyor ekanimni bugun yana bir bor ta'kidlamoqchiman".

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yuz berayotgan, inson omilining roli kuchayib borayotgan sharoitda ilmiytexnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim tizimida, oliy ta'lim muassasalarida mediakompetentlikni rivojlantirish hozirgi zamon talablaridan hisoblanadi. Shaxsda media vositalaridan foydalanish, media vositalariga bo'lgan munosabat, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Shaxsning va madaniyatning o'zgarishi yosh avlodning jiddiy muammolarga duch kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar asosan ommaviy axborot texnologiyalari vositalarining ta'siri ostida sivilizasiyaning taraqqiy etishi bilan bog'liq holda sodir bo'lmoqda. Media ta'limi dunyoning har qanday mamlakatining har bir fuqarosining so'z erkinligi va ma'lumot olish huquqining asosiy huquqlarining bir qismidir. Media savodxonlik axborot jamiyati va uning rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib, uning texnik va texnologik imkoniyatlari aloqa evolyutsiyasi uchun muhim asos hisoblanadi. Bizning fikrimizcha har bir o'sib kelayotgan yosh avlod ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olishda, ayni damda dunyoda bo'layotgan global muammo va zararlar qobig'iga tushib qolmasligi, har xil turdagi axborotlarga ishonib kelajakdagi orzu-umidlarini barbod qilmasliklari uchun va albatta ona-vatanimiz ravnaqi uchun har bir inson qayg'urgan holatda, dunyo qarashi endigina rivojlanayotgan o'smirlarga muhim ta'lim va tarbiya berishlari lozim.

Ularning fikr-qarashlarni kengaytirishda va har bir holatga qarshi tanqidiy fikrlashni o'rgatishda media resurslar va axborot texnologiyalari ahamiyatli hisoblanadi.

Qo'llangan manbalar ro'yxati. Quyida media savodxonlikni rivojlantirish va axborotlarni to'g'ri tahlil qilishga qaratilgan kitoblarni ko'rishimiz mumkin. Moskva davlat universitetining jurnalistika fakulteti tomonidan yaratilgan "Ta'lim muhitida ommaviy axborot vositalari. Bolalar o'rtasida aloqa xavfsizligi", Rossiya pedagogika universitetida dotsentlari tomonidan yaratilgan "O'quv jarayonida ommaviy axborot vositalarining roli", Professor olim A. S. Galchenkov tomonidan yozilgan "Maktabda ommaviy axborot vositalarining shakllanishi va maktab o'quvchilarining mediasavodxonligi" kabi manbalar bularga misol bo'la oladi.

Media savodxonligi axborot jamiyatining zamonaviy hayotining ajralmas qismi bo'lib, uni nafaqat kattalar, balki yoshlarda ham shakllantirish zarurati mavjud, chunki zamonaviy ommaviy axborot vositalarining nisbiy erkinligi yosh avlodning

psixologiyasiga va kommunikativ hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zero yuksak maqsadlar yo'lida yoshlar hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://kun.uz/news/2019/10/17/oav-togrisidagi-qonunning-yangi-tahriri-yashirin-audiodan-foydalanish-holatlari-aniqlashtirilmoqda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F10%2F17%2Foav-togrisidagi-qonunning-yangi-tahriri-yashirin-audiodan-foydalanish-holatlari-aniqlashtirilmoqda> murojaat sanasi 16.02.2024
2. <https://gk-usbekistan.de/uz/2022/07/01/vystuplenie-prezidenta-shavkata-mirz/>
3. <https://kun.uz/uz/50966126> murjaat sanasi 7.12.2024
4. <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/oqituvchilarning-mediakompitentligini-rivojlantirishda-mediaga-tanqidiy-yondashuv-2/>